

## **Hafta davomida 428 nafar fuqaro bilan telemuloqot o'tkazildi**

Murojaatlar bo'limi xodimlari joriy yilning 9-13 oktyabr kunlari **Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya, terapiya va tibbiy reabilitasiya, xirurgiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya, ftiziatriya va pulmonologiya, endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko'p tarmoqli klinikasida, Respublika ko'z kasalliklari klinik shifoxonasida, Qashqadaryo viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Sirdaryo viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Andijon viloyati viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Respublika ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Xorazm viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Xorazm viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida, Namangan viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Farg'ona viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Navoiy viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Samarqand viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Surxondaryo viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Samarqand viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, IMPULS KLINIK, DR BOBOEV HEALTH CENTER** nodavlat tibbiyot muassasalarida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **333 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqotlar o'tkazdilar.

Bo'lim xodimlari tomonidan o'tkazilgan telemuloqotlar natijasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **10(3%) nafar** fuqarolar **shifokorlar qarovi va davolash sifatidan, dori vositalarini o'z hisobidan sotib olganligi, shifoxona sharoitidan hamda oziq-ovqatlar sifati** yuzasidan o'zlarining e'tirozlarini bildirgan bo'lsada e'tirozlari yuzasidan **Jamg'armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdilar.**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon(99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga **95 nafar** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan "sms" xabarnoma, **jamg'arma faoliyati va fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og'zaki e'tirozli hamda minnatdorchilik murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi **ishonch telefonlariga** hafta davomida **2(2,1%) nafar** fuqarolardan **og'zaki e'tirozli hamda minnatdorchilik murojaatlari** bo'ldi.

**Shulardan:**

Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida yashovchi fuqaro otasini Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida **o'z hisobidan dori vositalari sotib olganligi yuzasidan e'tirozli og'zaki murojaat qilgan bo'lsada ushbu holat yuzasidan yozma murojaat qilmasligini bildirdi.**

**Qaraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar imtiyozli yo'llanma shakllantirishda amaliy yordam so'rab og'zaki murojaat qildilar, barcha murojaatlar yuzasidan xududiy bosh mutaxassislarga fuqarolarning ma'lumotlari berilib og'zaki murojaat o'z vaqtida ijobiy qilindi.**

Toshkent shahar Uchtepa tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo'llanma shakllantirish tartibi, shifoxonalar hamda Jamg'arma faoliyati yuzasidan tashkilot manziliga og'zaki murojaat qilib keldi. Fuqaro xodimlar javoblariga qoniqish hosil qilib **Jamg'arma rahbariyati va xodimlariga o'zining minnatdorchiligini bildirib ketdi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasiga fuqarolardan bo'layotgan elektron murojaatlarga javob berish maqsadida tashkilot manzili ulandi va undagi fuqarolar murojaatlari o'rganilib **tegishliligi bo'yicha fuqarolarga javoblar yuborilmoqda.**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi va Murojaatlar bo'limi 2023-yilning II-yarim yillik ish rejasiga kiritilgan hamda poliklinikalarda tashkilashtirish rejalashtirilgan **"CaII burchak"** va **"Jamoatchilik fikri"** yuzasidan joylarda ijro mexanizmini tadbqiq qilish bo'yicha **chora-tadbirlar rejasi loyihasi shakllantirilmoqda.**

**Murojaatlar bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy 428 nafar fuqarolar bilan telemuloqotlar o'tkazdilar.**

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi  
Matbuot xizmati**